



## XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko'chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 7 - iyul

VI-63-129-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minalash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-190-tonli qarori ijrosi va tumanda 2023-yilning o‘tgan davri davomida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi hisoboti haqida**

Prezidentimiz tomonidan 2022-yil 11-fevral kuni o‘tkazilgan “Xavfsiz va ravon yo‘l” tamoyili asosida yo‘llarda inson xavfsizligini ta’minalash borasidagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minalash, yo‘l-transport hodisalarini oldini olish, avariya o‘choqlari va yo‘l infratuzilmasidagi kamchiliklarni aniqlab, ularni bartaraf etish borasida bir qator topshiriqlar berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minalash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 4-apreldagi PQ-190-tonli qarori bilan avtomobil yo‘llarida harakatni tashkil etish, boshqarish va xavfsizlikni ta’minalash sohasidagi faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minalash bo‘yicha respublika maxsus komissiyasi va uning hududiy maxsus komissiyalari tashkil etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi 190-tonli Qaroriga asosan, tuman (shahar) hokimliklariga o‘z hududlaridagi avtomobil yo‘llarida yo‘l harakati qoidalari buzilishini qayd etuvchi maxsus avtomatlashtirilgan foto va video dasturiy-texnik vositalari jumladan, tezlikni nazorat qiluvchi radar maxsus moslamalari o‘rnatish huquqi berilgan bo‘lib, mazkur dasturiy-texnik vositalar orqali qayd etilgan qoidabuzarliklar uchun jarima summasining 30 foizi bevosita tuman (shahar) mahalliy budjetiga yo‘naltiriladi hamda ushbu mablag‘lar yo‘l harakatini raqamlashtirish, yo‘l infratuzilmasini rivojlantirish, shuningdek, yo‘l-patrul xizmati xodimlarining qo‘sishimcha shtatlarini kiritishga sarflanishi ko‘rsatilgan.

Bundan tashqari, chorrahalarini to‘liq raqamli boshqaruvi tizimiga o‘tkazish bo‘yicha tuman (shahar) hokimlari zimmasiga yuklangan bo‘lsa-da, bugungi kunga qadar mazkur yo‘nalishdagi ishlar boshlanmagan. Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minalash bo‘yicha respublika maxsus komissiyasining 2023-yil 17-yanvar kungi yig‘ilishida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi 190-sonli qarori talablari asosida o‘z hududlaridagi avtomobil yo‘llarida yo‘l harakati qoidalari buzilishini qayd etuvchi maxsus avtomatlashtirilgan foto va video dasturiy-texnik vositalarini o‘rnatish ishlarini olib bormaganliklari, yo‘l transport hodisalarining oldini olish, yo‘l infratuzilmasini takomillashtirish choralarini ko‘rmaganliklari natijasida yo‘l-transport hodisalari hamda ularning oqibatida o‘lim bilan bog‘liq holatlar oshib ketishiga yo‘l qo‘ygan tuman (shahar) hokimlarining mas’uliyati qonunchilik hujjatlariga muvofiq tanqidiy ko‘rib chiqilishi va natijalari bo‘yicha maxsus komissiyaga axborot berilishi belgilab o‘tilgan.

Angor tumani ichki ishlar bo‘limi yo‘l harakati xavfsizligi guruhi katta inspektori M.Eshboevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi PQ-190-sonli qarori ijrosini va tumanda 2023-yilning o‘tgan davri davomida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi hisoboti eshitilib, masala yuzasidan bildirilgan fikr va mulohazalarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Angor tumani Kengashi

### **QAROR QILADI:**

1. Angor tumani ichki ishlar bo‘limi yo‘l harakati xavfsizligi guruhi katta inspektori M.Eshboevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi PQ-190-sonli qarori ijrosi va tumanda 2023-yilning o‘tgan davri davomida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi hisoboti ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman ichki ishlar bo‘limi yo‘l harakati xavfsizligi guruhi katta inspektori (M.Eshboyev) mutasaddi idora va tashkilotlar hamda tuman hokimligi bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-aprelda “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ta’minalash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-190-sonli, 2022-yil 12-iyulda “2022-2026-yillar davomida amalga oshirilishi mo‘ljallangan “Xavfsiz va ravon yo‘l” umummilliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-316-sonli qarorlari ijrosini ta’minalash, tuman hududida yo‘l harakatini tashkil etish tizimini yanada takomillashtirish, avtomobil yo‘llari infratuzilmasini rivojlantirish va yo‘l harakati ishtirokchilari uchun qulay sharoitlar yaratish yuzasidan yo‘l infratuzilmasini kompleks takomillashtirish yo‘nalishi bo‘yicha dasturni bajarish choralarini ko‘rilsin.

3. Tumani ichki ishlar bo‘limi yo‘l harakati xavfsizligi guruhi katta inspektori (M.Eshboyev):

- tumanda yo‘l harakati qoidalari buzilishi holatlari keskin oshib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqib, qattiq nazorat o‘rnatish;

- tumanda yo‘l harakati xavfsizligi qoidalari buzilishini oldini olish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi, Ichki Ishlar Vazirliklari tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarning mazmun mohiyatini aholiga yetkazish

uchun joylarda o‘quv seminarlari va targ‘ibot va tashviqot ishlari olib borish;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 04.04.2022-yildagi PQ-190-soni hamda 12.07.2022-yildagi PQ-316-tonli qarorlari ijrosi yuzasidan olib borilayotgan ishlar to‘g‘risida har oy yakuni bilan Kengashga hisobot kiritib borish vazifasi topshirilsin.

4. Tuman hokimining matbuot kotibi G.Jumayeva ushbu qarorni tuman hokimligining rasmiy veb saytida e’lon qilishi tavsiya etilsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi M.Sadatov zimmasiga yuklansin.

6. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

**Kengash raisi**



**Q.Mardonov**